



SHARQSHUNOSIK  
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ  
ORIENTAL STUDIES



1

2026

ILMIY JURNAL  
ISSN 2181-8096



**SHARQSHUNOSLIK**  
**ВОСТОКОВЕДЕНИЕ**  
**ORIENTAL STUDIES**

---

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY  
OF ORIENTAL STUDIES

**№ 1, 2026**

**MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS****ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE**

- Abdovaxidov A.* Sarvepalli Radhakrishnanning falsafiy-teologik qarashlari ..... 16  
*Ashurova M.* Xitoy adabiyotida esse janrining paydo bo'lishi va taraqqiyoti ..... 29

**TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK //  
ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ //  
LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION**

- Tursunbayeva Z.* Tarixiy asarlar tarjimasida o'lchov birliklarining ifodalanishi ..... 51  
*Karimova X.* Overview and thinking on the development of modern chinese terminology .. 63  
*Yusupova G.* Koreys va o'zbek lingvomadaniyatida xayrlashish nutq aktining ifodalanishi 79  
*Ibragimova N.* «Ilmiy-texnik terminologiyani standartlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari: XXR va O'zbekistonning qiyosiy tahlili» ..... 115  
*Dr Sayyada Begum* Essay Writing in Urdu with Specific Reference to Professor Zaman Azurdah ..... 126

**MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK //  
ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ //  
SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY**

- Pulatova M.* “Arba'in” – hadis to'plamlari xususida..... 137  
*Odilov B.* O'zbekistonda kulolchilik maktablarining vujudga kelishiga doir bazi mulohazalar ..... 143

**XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT //  
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА //  
INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS**

- Xodjimuratova D.* Erondagi diniy-siyosiy tizim modernizatsiyasi jarayonlari tarixi ..... 154  
*Shazmanov Sh., Sabirov L.* XXRda havo va kosmos transporti siyosati ..... 163  
*Puzayev A.* Методология исследования проблемы национальной идентичности..... 172  
*Dustov U.* US–China Strategic Competition and Regional Security: Central Asian Perspective ..... 181  
*Abdulxayev A.* Xitoyda modernizatsiya jarayonlarining siyosiy va ijtimoiy jihatlari ..... 190  
*Олимов Д.* Трансформация энергетического сектора Афганистана в контексте региональной политики Узбекистана ..... 200  
*Boyxonov Sh.* Pokistonning ko'p vektorli tashqi siyosatida Markaziy Osiyo bilan hamkorlik strategiyasining amaliy jihatlari ..... 209  
*Mamatqulov S.* Experience of combating terrorist groups and their activities in Pakistan .... 218  
*Маннонова О.* Экономическое сотрудничество Узбекистана и Российской Федерации во время мирового финансово-экономического кризиса ..... 227



<i>Elmuratova R.</i> Ozarbayjonning dezinformatsiyaga qarshi kurashish tajribasi.....	225
<i>Исамухамедов Т.</i> СМИ и общественное мнение как ресурс обеспечения государственной и общественной безопасности Узбекистана .....	235

**FALSAFA // ФИЛОСОФИЯ // PHILOSOPHY**

<i>Иззетова Э.</i> Парадигма постконфуцианства Фэн Юляня в контексте философского дискурса.....	206
--	-----



## ARBA'IN" – HADIS TO'PLAMLARI XUSUSIDA

MALOHAT PULATOVA

Dotsent, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, TDSHU

ORCID: 0009-0000-8171-0271

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Sharq mumtoz adabiyotida "Arba'in" – "Chihil hadis" yozish an'ana bo'lganligi va an'anaga sabab bo'lgan omillar, janr xususiyati, uning mumtoz adabiyotga ta'siri ilmiy asoslangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidli Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalari fondida saqlanayotgan "Arba'in" asarlari qo'lyozma nusxalari tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zi:** Arba'in (qirq hadis), an'ana, arba'in janri, mumtoz adabiyot, qo'lyozma nusxa, Imom Navaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, xattotlik san'ati, devon, kulliyot.

**Abstract:** This article provides a scholarly analysis of the tradition of composing "Arbain" ("Forty Hadith") works in classical Eastern literature, examining the factors that contributed to its emergence, its genre characteristics, and its influence on classical literature. It also analyzes manuscript copies of "Arbain" works preserved in the manuscript collection of the Abu Rayhan Beruni Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

**Keywords:** Arbain (forty hadiths), tradition, Arbain genre, classical literature, manuscript copy, Imam Nawawi, Abdurahman Jami, Alisher Navoi, art of calligraphy, divan, kulliyat.

**Аннотация:** В данной статье научно обоснована традиция создания произведений типа «Арбаъин» («Чихиль хадис») в классической восточной литературе, раскрыты факторы, способствовавшие её формированию, жанровые особенности и влияние на развитие классической литературы. Также проанализированы рукописные экземпляры произведений «Арбаъин», хранящиеся в фонде рукописей Института востоковедения имени Абу Райхана Беруни Академии наук Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** Арбаъин (сорок хадисов), традиция, жанр арбаъин, классическая литература, рукописный экземпляр, Имам Навави, Абдурахман Джамии, Алишер Навои, искусство каллиграфии, диван, куллият.

O'zbekistonda keng ko'lamli islohotlar olib borilayotgan bugungi kunda, barcha sohalar qatori ilmiy merosimizning tarkibiy qismi bo'lgan mumtoz adabiyotimiz namoyandalarining diniy, ma'naviy, badiiy asarlarini o'rganishda yangi yondashuvlar joriy etilmoqda. Sharq mumtoz adabiyotida o'ziga xos an'anaga ega bo'lgan buyuk allomalarimizning badiiy-ma'rifiy, diniy merosiga oid ko'p asrlik arba'in qo'lyozma manbalarini jumladan, Jomiy, Navoiy va Fuzuliy "Arba'in" – "Chihil hadis" asarlarini adabiy manbashunoslik hamda matnshunoslik nuqtai nazaridan batafsil qiyosiy o'rganish fors va turkiy tilda



yaratilgan arba'in an'anasining muhim manbalaridan biri sifatida bugungi avlodlarning ta'lim-tarbiyasi va ma'naviy kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Islom dini Yaqin va O'rta Sharq hamda Markaziy Osiyo hududlariga keng va chuqur kirib borishi natijasida musulmon mintaqa madaniyati doirasidagi xalqlarning tafakkurini yangi ma'naviy qadriyatlar asosida birlashtirib, mohiyatan barcha musulmon xalqlari uchun yagona bo'lgan yaxlit madaniyat, xususan, yaxlit falsafa, ilm fan, badiiy adabiyotning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qildi. Yaxlit musulmon mintaqa madaniyati rivoji mobaynida turli tabiiy va ijtimoiy fanlar qatorida adab ilmlari, xususan, poeziya, tarixiy proza, agiografiya, poetik janrlar keskin rivojlanib, mumtoz adabiyotning yaxlit tarzda shakllanishi uchun sharoit yaratildi. X.Karamatovning "Qur'on va o'zbek adabiyoti" nomli kitobida shunday deyiladi: "Qur'oniy mavzularning jahon va alalxusus o'zbek adabiyotiga singib o'tishi faqat diniy nuqtai nazardangina ibratli bo'lib qolmay, balki, sharq adabiyotining biz uchun mavhum qirralarini oydinlashtirib, turli adabiy mavzularning sarchashmalarini ochgan va hozirgi zamon o'zbek adabiyotining islom adabiyoti bilan shajaraviy, moziydan uzilmas aloqalarini tiklashga ham madad bergan..."<sup>1</sup>

Islom dini arkonlarini keng targ'ib va tashviq etish maqsadida VIII asr oxiri – IX asrdan boshlangan Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislarini asosida arba'in tuzish an'anasi XII asrlarga kelib musulmon xalqlari mumtoz adabiyotida "Arba'in" yoki "Chihil hadis" nomi ostida qirqta hadisni bir yerga jamlab, ularning ma'nosini xalqqa tushuntirib berish, sharh yozish alohida adabiy janrga aylana boshladi.

Har qanday adabiy qonuniyat vujudga kelishining o'z ijtimoiy, tarixiy, falsafiy, mafkuraviy, madaniyatshunoslik va badiiy tafakkur rivoji bilan bog'liq omillari hamda sabablari mavjud. Binobarin, fikrimizcha, ijtimoiy-tarixiy, ma'naviy-ma'rifiy, diniy-estetik va pedagogik, diniy-mafkuraviy, targ'ibot-tashviqot bilan bog'liq, shuningdek, shaxsiy-mualliflik talabi va ehtiyoji bilan bog'liq omillar uning poetik shakl sifatida shakllanishi uchun turtki bo'lgan, ular majmui arba'in kelib chiqishining ijtimoiy, tarixiy va badiiy asoslarini belgilab beradi.

"Arba'in" tushunchasi etimologiyasiga qaraydigan bo'lsak, islom dini amaliyotida arba'in, avvalo, "qirq" so'zi bilan bog'liq holda arab xalqlari mistik tasavvurlari asosida vujudga kelgan. Arab ijtimoiy voqeligida "arba'in" termini bevosita islom dini bilan bog'liq ravishda, ayni diniy amaliyot sifatida shakllangan bo'lib, taqvo egalari Alloh yo'lida qirq kecha-kunduz yolg'izlikda toat-ibodat bilan shug'ullanishni odat qilishgan. Keyinchalik, bu odat yangi yo'nalish olib, Payg'ambarimiz (s.a.v.) hadislarini yodlashga e'tibor qaratilgan. Shunday qilib, hadislar muayyan diniy-adabiy yo'nalish sifatida arab adabiyotida

<sup>1</sup> Караматов Х. Куръон ва ўзбек адабиёти. – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 5.



vujudga kelib, keyinroq ajam xalqlari adabiyotiga ham katta ta'sir o'tkazgan. Arba'in ijod qilish din talablarida juda yuqori baholana boshlagach, bir qator ulamolar bu ish bilan shug'ullanishga kirishgan, biroq bu juda mas'uliyatli yumush hisoblanganidan, har qanday ijodkor ham unga qo'l uravermagan. Chunki arba'inda Qur'on va hadislar mazmuni talqini, ular ifodasi bo'lganligi uchun, agar xato ketsa, din ulamolarining qat'iy e'tirozini uyg'otish mumkin edi.

Arba'inlarning adabiy janr sifatida shakllanishi dastlabki arabiy arba'inlardan to turkiy arba'inlargacha bir qator bosqichlarni bosib o'tgan. Agar arab tilidagi ilk arba'inlar, asosan, sof diniy xarakterga ega bo'lib, islom dinini keng yoyish, islom arkonlarini ummatga hamda ommaga oson yo'l bilan tushuntirish, din targ'iboti ishini yo'lga qo'yish kabi maqsadlarni ko'zlagan bo'lsa, keyinroq borib turli alohida mavzularga bag'ishlangan nasriy arba'inlar paydo bo'ldi. Ar'bainlar falsafiy, tasavvufiy, adabiy mavzularni o'zida aks ettira boshladi. Tavhid va Allohning sifatlari, ahkom, ibodat, pand-nasihatga oid mavzularda hadislar to'plandi. Manoqib janrida yozilgan arba'inlar ham paydo bo'ldi.

Imom Navaviy o'zining "Arba'in Navaviy"-*"اربعين النووي"* asarida: "Qirq hadis yozgan olimlarning ba'zilar aqoidga oid, ba'zilar dinning turli masalalari – zuhd, odob, nasihat va boshqa mavzularga oid hadislarini to'plashgan. Ularning barchasi juda go'zal yozilgan. Alloh ulardan rozi bo'lsin»<sup>1</sup>, deb ta'kidlaydi.

An'anaviylik – arba'inning an'anaviylik xususiyati shundaki, u takrorlangan, avloddan avlodga yetkazilgan, qadrlangan va e'zozlangan, saqlab qolishga urinilgan, qadriyat sifatida alohida e'tibor bilan qaralgan.

O'zR FA SHI qo'lyozmalar fondi kartotekalarini ko'zdan kechirganimizda 80 ga yaqin "Arba'in" asarlari qo'lyozmalari va ularning bir necha nusxalari mavjudligi ma'lum bo'ldi. Shu kungacha nashr etilgan kataloglarda ushbu qo'lyozmalardan faqat ba'zilar haqidagina qisqacha ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, aksariyat qo'lyozmalar ularda o'z aksini topmaganligi aniqlandi. Jumladan, 1954-yil Toshkentda nashr qilingan SVR (O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasining Sharq qo'lyozmalari to'plami)ning II tomiga Jomiy "Arba'in" asarining faqatgina 2 ta qo'lyozmasi – 4535-I- va 1331- raqamli nusxalari<sup>2</sup> hamda ushbu katalogning 1957-yilda nashr qilingan VI tomida 3014-VI- raqamli<sup>3</sup> qo'lyozma nusxalari tavsifi kiritilgan. Ushbu to'plamlarda Alisher Navoiy "Arba'in" asarining 1315-VI-raqamli va 9762-raqamli qo'lyozma nusxalari, 1983-yil nashr qilingan "Navoiy asarlari qo'lyozmalarining tavsifi"ga 232-, 316-, 8-raqamli qo'lyozma nusxalar hamda 1989-yili chop etilgan "Qo'lyozmalar instituti fondi katalogi"ga yana 316, 8-raqamli qo'lyozma, 2006 yil nashr qilingan

<sup>1</sup> Имом Муҳиддин Закарий ибн Шараф Нававий. Қирқ ҳадис. – Т.: Моварауннаҳр, 2005. – Б. 3. (116 б)

<sup>2</sup> СВР. II том. – Тошкент: Фан. 1954. – Б. 191, – Б. 411.

<sup>3</sup> СВР. VI том. – Тошкент: Фан. 1963. – Б. 432.



“Alisher Navoiy nomidagi adabiyot davlat muzeyi qo‘lyozmalari katalogi”ga 8-raqamli qo‘lyozma nusxa kiritilgan. Shuningdek, Jomiy va Navoiy “Arba’in” asarlarining qo‘shma kitobat qilingan nusxalarining fond kataloglarida mavjud 22 ta nusxasidan faqat 5 tasigina kataloglarga kiritilgan.

Aslida, hozirgi kunda fond kartotekalarida Jomiy “Arba’in”ning 12 ta qo‘lyozma nusxa va Navoiyning “Arba’in» asari qo‘lyozmalaridan 10 ta nusxa mavjud bo‘lib, ulardan faqat 4 ta nusxagina nashr kataloglariga kiritilgan. Bular ham ko‘pchiligi qisqartirilgan tavsiflar bo‘lib, shu sababli tadqiqotimiz davomida O‘zR FA ShI qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan “Arba’in” asarlarining barcha qo‘lyozmalari ro‘yxatini aniqladik va ularni birma-bir o‘rganib chiqib, mufassal tavsiflarini dissertatsiyaga kiritdik. Ushbu ilmiy-analitik tavsiflarni tayyorlashda jahondagi ushbu soha mutaxassislarining tajribasidan oqilona foydalanish asosida muayyan ilmiy tamoyillarni ishlab chiqib, ularni o‘z ishimizda qo‘llashga harakat qildik. Masalan, asar boshlanishidan bir parchasi va oxiridan bir parchasi arab alifbosida keltirildi. Bundan asosiy maqsad boshqa qo‘lyozma fondlaridagi mazkur asarning yana nusxalari bo‘lishi mumkinligida bo‘lib, arab alifbosida keltirilgan parchalar mutaxassislarga ana shu farqlarni solishtirish imkonini beradi.

O‘zR FA ShI qo‘lyozmalar fondidagi Jomiy “Arba’in”ning mavjud 12 ta qo‘lyozmasidan maxsus katalog nashrlariga kirmagan 8 tasi – 282-VI, 1266-II, 6051-III, 3636-II, 3386-XXVII, 2202-I, 5900-I, 10493-XVI raqamli qo‘lyozma nusxalarining tavsifini har bir qo‘lyozmaning xususiyatidan kelib chiqib ma‘lumot berdik.

Navoiy “Arba’in” asarining qo‘lyozma nusxalaridan eng qadimiylari va ahamiyatlilari bu, 976<sup>1</sup>, 8<sup>2</sup> va 316 raqamli<sup>3</sup> qo‘lyozmalar hisoblanadi. Biz Navoiy “Arba’in” asari qo‘lyozmalarini tavsif qilishda yuqoridagi tamoyillardan kelib chiqib, kataloglarda mavjud tavsiflarni to‘ldirib, ham kengaytirib berishni lozim topdik va ularga katalog tavsiflarida qayd etilmagan ma‘lumotlarni kiritdik. Bundan tashqari, 316 raqami ostida saqlanayotgan Navoiy “Kulliyot”i tarkibidagi “Xazoyin ul-maoniy”ning yaxlit bir devon holida kitobat qilingan nusxasida 4 devondagi 73 ta “Xazoyin ul-maoniy” qit‘alari oldidan 18 ta “Arba’in” qit‘alari ilova qilinganiga e‘tibor qaratdik<sup>4</sup>. “Arba’in” qit‘alari Navoiyning ba‘zi terma devonlari tarkibiga ham kiritilgan. Masalan, XIX asr boshlarida Qo‘qonda kitobat qilingan 232-raqamli qo‘lyozmaning boshida “Badoe ul-bidoya” debochasi va “Arba’in” asari o‘rin olgan<sup>5</sup>. 2017-yil nashr qilingan “O‘zbekiston SSR fanlar

<sup>1</sup> СБР. VII Том, Тошкент. Фан 1964. (5326-рақамли қўлёзма).

<sup>2</sup> М.Ҳақимов. Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавсифи. Тошкент: Фан. 1983. Б.177-178.

<sup>3</sup> Каталог фонда института рукописей. 1 том. – Ташкент: Фан. 1989. С. 11-12.

<sup>4</sup> М.Ҳақимов. Навоий асарлари қўлёзмаларининг тавсифи. – Тошкент: «Фан», 1983. – Б. 20.

<sup>5</sup> Shu asar. – B. 96.



akademiyasining sharq qo'lyozmalari to'plami. Adabiyotlar (Devonlar)" nomli katalogning I tomida 9656-raqam<sup>1</sup> bilan berilgan Navoiy devonining qo'lyozma nusxasida "Badoe ul-bidoya" debochasidan avval "Arba'in" muqaddimasidan o'n misra nasriy shaklda (misralarga ajratilmagan holda) keltirilgan. Ushbu misollar Navoiy "Arba'in"ning keng kitobxon ommasini ichidagi shuhratiga yana bir dalildir. Umuman, Jomiy va Navoiy "Arba'in"lari qo'lyozma nusxalari tahlili ularning diyorimizda keng tarqalganligi hamda o'z davri kitob muhlislari doirasida mashhurlik kasb etganligini ko'rsatadi.

Navoiy asarlarining kitobat qilinishi turlicha bo'lib, bu qo'lyozmalarning xilma-xil kitobat qilinishi turli davr, turli ijtimoiy tabaqalarning ma'naviy dunyosi, talabi va estetik zavqining mahsuli deyish mumkin.

O'zR FA ShI qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan Jomiy va Navoiy "Arba'in" asarlarining birgalikda kitobot qilingan 2084, 10064, 11342-II, 11703-II, 5726-I, 1821-I, 670-I, 4351-I, 3975-IV, 6236-I, 2634-V, 10007-III, 12654-III, 3303-IV, 8848-I, 3902-V, 9309, 3622, 1235, 106-IV raqamli 20 ta qo'lyozma nusxalari mavjud bo'lib ulardan faqat 2084-IV, 9309, 3902, 3622, 106-IV-raqamli 5ta qo'lyozma nusxalar tavsifi yuqorida zikr etilgan nashr kataloglariga kiritilgan<sup>2</sup>.

9309-raqamli qo'lyozma 1964 yil nashr qilingan O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasining Sharq qo'lyozmalari to'plamining VII tomiga 1306 tartib raqami bilan kiritilgan tavsifda «har bir hadisdan so'ng Jomiy va Navoiy tarjimalari keltirilgan, deb qayd etilgan<sup>3</sup>. Qo'lyozmani ko'zdan kechirganimizda, bu qo'lyozma nusxaga Jomiy "Arba'in"ni kiritilmaganligi, faqat Navoiy "Arba'in"ni ko'chirilganligi ma'lum bo'ldi<sup>4</sup>.

Izlanishlarimiz natijasida, respublikamiz qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan nashr kataloglari tavsifiga kirmagan Jomiy, Navoiy "Arba'in" asarlarining birgalikda kitobot qilingan 10064, 11342-II, 8848-I, 35 KP-4096 raqamli 4 ta qo'lyozma nusxalar aniqlandi ularning to'liq tavsif va tahlili quyidagi tartibda berildi. Misol uchun:

Jomiy va Navoiyning "Arba'in" asarlari birgalikda albom tarzida kitobot qilinganlaridan biri 11342-raqamli qo'lyozma nusxa bo'lib, u "Arba'iniya manzuma Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy" nomi bilan Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanadi. Ushbu qo'lyozmada 40 ta hadis va uning

<sup>1</sup> Сборник Восточных рукописей академии наук Республики Узбекистан. Литератури (дивани). I Том. – Ташкент: 2017. – С. –214.

<sup>2</sup> (2084-IV) – Каталог фонда института рукописей. I том. –Ташкент: Фан, 1989. С.57. (9309) – СВР. VII Том, –Тошкент. Фан 1964. С.145; (3902-V) – СВР. II Том, –Тошкент. Фан 1954. Б. 231; (3622) – СВР. II Том, – Тошкент. «Фан» 1954. С.215; (106-IV) – М.Накимов. Навоий асарлари qo'lyozmalarining tavsifi. – Тошкент: Фан. 1983. Б.178-179.

<sup>3</sup> Qarang: СВР. VII Том, – Ташкент. Фан 1964. Б. 144-145.

<sup>4</sup> ШҚФ – 9309.



nazmdagi sharhi fors-tojik, turkiy chig‘atoy tilida ketma-ket berilgan. Qo‘lyozma e‘tiborli, qadimiy nusxalardan hisoblanadi. Bu qo‘lyozma شرح قصيدة ربوبيه va مزرع قصيدة غوثيه ning عبد القادر الجلاني Abdul Qodir Jiloniy hamda الحسنات شرح دلائل الخيرات kabi asarlar bilan kitobot qilingan. Qo‘lyozma noma‘lum kotib tomonidan hijriy 1271-yili ko‘chirilgan. Qo‘lyozma chiroyli eron nastaliq xatida Sharq qog‘oziga yozilgan. Asar muqaddima, asosiy matn va xotimadan iborat. Asar matni qora siyohda, hadislar qizil siyoh bilan yozilgan. Jadvalga olinmagan. Bir ustunli, 8 yo‘l, sahifa o‘rtasida Jomiyning “Arba’in” – “Chihil hadis”i, hoshiyada esa Navoiyning «Arba’in»i yozilgan. Varaqlar urinmagan, poygir bor. Varaqlar soni – 5 (108a–112a) ta. Matn o‘lchovi – 20x9. Qo‘lyozma o‘lchovi – 28,5x16,5. Qo‘lyozma nusxa Jomiy Arba’inining muqaddimasi bilan boshlangan bo‘lib, Navoiy asari ilova qiligan. Dissertatsiyada matn boshlanishi va tugallanishidagi jumlar hamda kolofonlar bevosita arab yozuvida keltirilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Qo‘qon Adabiyot muzeyi qo‘lyozmalar fondida yagona nusxada 35 KP-4096 raqami ostida Jomiy va Navoiyning “Arba’in” asari saqlanmoqda. Bu qo‘lyozma noyob nusxalardan bo‘lib, matnshunoslik, manbashunoslik fani va xattotlik, kitobot san‘ati uchun ham e‘tiborli manbadir. Qo‘qon davlat adabiyot muzeyida yagona nusxada saqlanayotgan ushbu qo‘lyozma tugallanmagan majmua sirasiga kirsada, XIX asr kitobot san‘ti namunasiga oid noyob nusxalardan hisoblanadi. Shuningdek, matnshunoslik, manbashunoslik fani, xattotlik, ziynatli kitobat san‘ati uchun ham bebaho manbadir. Mazkur qo‘lyozma nusxalar xattotlik va kitobot san‘atining o‘ziga xos namunalari bo‘lib, har qanday kitobxonni o‘ziga jalb qiladi. Kotib va sahhofning chiroyli did bilan ishlagan kitoblari, avvalo, xalqning hadislarga bo‘lgan e‘tibori hamda she‘riyatga bo‘lgan muhabbati mahsulidir.

O‘zbekiston qo‘lyozma fondlaridagi “Arba’in” asarlarining qo‘lyozma nusxalarini manbashunoslik nuqtai nazaridan o‘rganib chiqish shuni ko‘rsatdiki, birinchidan, bunday qo‘lyozmalar juda ko‘p, xilma-xil shakl va mazmunga, nasr va nazmda yozilishi bilan birga turlicha mavzu yo‘nalishi va o‘ziga xos yondashuvlarga ega ekan. Ular, asosan, arab, fors-tojik va turkiy tillarda yaratilgan bo‘lib, eng mashhurlari (ya‘ni eng ko‘p ko‘chirilganlari) arab tilida Navoiyning, fors-tojik tilida Jomiy, turkiy tilda Navoiyning “Arba’in”lari ekan.